

ONA TILI TA'LIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Madolimova E'zozxon Sohibjon qizi

Farg'ona viloyati Bog'dod tumani 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maktablarda o'quvchilarga ta'lim berishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Shu zamonaviy yondashuvni ona tili fanida qo'llash bo'yicha tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ona tili, Baxs, munozara, muhokama, gap shakllari, ibora, texnika vositalari, musobaqa, muloqot.

Аннотация: Использование современных технологий в обучении учащихся в школах является одной из актуальных проблем современности. Даны рекомендации по применению этого современного подхода в науке о родном языке.

Ключевые слова: Родной язык, Бах, дебаты, дискуссия, формы предложений, выражение, технические средства, соревнование, общение.

Abstract: The use of modern technologies in teaching students in schools is one of the urgent problems of today. Recommendations on the application of this modern approach in the science of mother tongue have been given.

Key words: Mother tongue, Bachs, debate, discussion, sentence forms, expression, technical means, competition, communication.

Ta'limdan asosiy maqsad bolalaiga bilim berishgina emas, balki bilim olish yo'llarini o'rgatish, ulami ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish demakdir. Yangicha ijtimoiy, iqtisodiy sharoitda ona tilini o'qitish mazmunini takomillashtirish, darslami jahon andozalariga mos ravishda tashkil qilish talaba faolligini oshiradigan muhim omillardan hisoblanadi. Nutqiy faoliyatda har bir til hodisasining o'z o'mi, o'z vazifasi bor. Yoshlar til imkoniyatidan vaziyatga qarab foydalanish malakasiga ega bo'lishlari, o'z fikrini aniq ifodalashga, zarur bo'lgan so'z va gap shakllari, ibora va tasviriy ifodalarni tanlay va qo'llay bilishlari davr talabidir. Buning uchun ona tili o'qituvchisi o'z ixtisosini puxta bilishi, ilg'or pedagogik texnologiya hamda zamonaviy o'quv — texnik vositalaridan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Shundagina ta'lim samarasi ham, o'qitish darajasi ham yuqori bo'ladi. Ona tilidan dars beruvchi o'qituvchi haqqiy ijodkor bo'lishi, ta'lim jarayonida o'quvchining mavzuni tinglash, anglash, erkin va mustaqil fikrlash, qiyoslash, farqlash, alohidaliklarga ajratish va tasnif etishga yo'naltirilgan faoliyatini rag'batlantirishi, o'z

fikri, g'oyalarini o'zgalarga yetkaza olish ko'nikma va malakalarining shakllanishini nazorat qilishi, boshqarishi darkor. U yoshlarning ahloqiy-ma'naviy tarbiyasi bilan shug'ullanishi, ularga sharqona muloqot odobi, milliy an'analarimizga hurmat, ona-Vatanga muhabbat tuyg'usi kabi zaruriy xislatlarni singdirish olishi lozim. O'quv mashg'ulotlarini yangi zamonaviy shakl va usullarda tashkil etish, talabalarni dars jarayonida maqsadli boshqara olish ayni kunda o'qituvchilik faoliyatining bosh mezonidir deb qaralmoqda. An'anaviy yo'nalishdagi dars didaktik maqsadiga ko'ra: yangi bilimlarni o'zlashtirish; o'rganilgan bilimlarni amaliy tatbiq etish orqali mustahkamlash; o'qitilganlarni takrorlash; bilim va malakalarni mustahkamlash; talabaning bilimini nazorat qilish va baholash; ularni bir sistemaga keltirish kabi turlarga ega ekanligi pedagogika fanidan yaxshi ma'lum. Ammo iqtisodiy-ijtimoiy ravnaq, ilm-u fan sohalaridagi yangi-yangi yutuqlar ta'limning asosiy vositasi bo'lgan dars (mashg'ulot) va uning turlarining ko'payishiga, takomillashuviga olib keldi. Endilikda darslarning yangi tiplari va shakllari haqida ko'plab ilmiy-metodik ishlar mavjudligini hisobga olib, biz ulardan faqat ikkitasi haqida to'xtab o'tishni lozim ko'rdik. Ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan zamonaviy dars turlari va shakllarini qo'llash, talabaning ta'lim jarayonidagi o'rni, unga yangicha yondashuv, yangicha munosabatni ta'minlash mazkur jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarish demakdir. Quyida ilg'or pedagogik texnologiyaga asoslangan dars turlarining o'ziga xos tomonlari haqida fikr yuritamiz. Musobaqa darslari Ona tili ta'limida musobaqa darslarini o'tkazishdan maqsad o'quvchining til darsida olgan bilimlarini sinab ko'rish, o'zaro munozara — muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqib olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari o'quvchilarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy fikr yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Samarali dars shakllaridan biri bo'lgan musobaqa darsi til mashg'ulotlarining qiziqarli o'tishi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi vositadir. Musobaqa darslari uchun mavzular: "Nutq tovushlarining siri", "So'z harfidan so'z yasang", "Tinish belgilari musobaqasi", "So'zshunoslar anjumani", "Zakovat" darslari... Bahs-munozara darslari musobaqa darslarida yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarish bilan farqlanadi. Bahs-munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylashga, o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs — munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalillarini tinglaydi, o'z "men"ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy tafakkuri ko'lamini, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z fikrini himoya qilish

uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, til imkoniyatlaridan unumli foydalanishga o‘rganadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyodova T.U. Hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. O‘quv-metodik qo‘llanma. Akademik liseylar uchun. — T.: 2002.
2. Ziyodova T.U. Ona tilidan rangli proeksion slaydlar komplekti, 1-2-qismlar. — Samarqand, 2002.
3. Ziyodova T.U. O‘qituvchi kitobi. Ona tili o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. — T.: 2002.
4. Ziyodova T.U. 5-sinflar uchun elektron-didaktik slaydlar to‘plami. — Guliston—Toshkent, 2006.
5. Ziyodova T. O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish. — T.: “O‘qituvchi”, 2000.